

O‘ZBEK NEKROTOPONIMLARI NOMLANISHINING MILLIY-MADANIY ASOSLARI

Yusupov San’at Shuxratovich
Nukus davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrası o‘qituvchisi.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ УЗБЕКСКИХ НЕКРОТОПОНИМОВ

Юсупов Санъат Шухратович
Преподаватель социально-гуманитарного факультета
Нукусского государственного педагогического института

NATIONAL-CULTURAL BASES OF UZBEK NECROTOPONYMS

Yusupov Sanat Shukhratovich
Nukus State Pedagogical Institute Social and Humanitarian



sanatyusupov999@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0008-2428-485X>

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi O‘zbek nekrotoponimlari nomlanishining milliy-madaniy asoslari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: toponim, nekrotoponim, etnonim, antroponim

Annotation: The article examines the national-cultural basis of naming Uzbek necrotoponyms in the Republic of Karakalpakstan.

Key words: Toponym, necrotoponym, ethnonym, anthroponym.

Аннотация: В статье исследуются национально-культурные основы именования узбекских некроtopонимов в Республике Каракалпакстан.

Ключевые слова: Топоним, некроtopоним, этноним, антропоним

Kirish. Tilshunoslikda lingvokulturologiya sohasi XX asr oxirida yuzaga kelgan bo‘lib, ilk bor “lingvokulturologiya” termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan izlanishlarga bog‘liq holda qo‘llanilganligi qayd etiladi. Qoraqalpoq tilshunosligida ham bu mavzu bir qancha olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan professor Sh.Abdinazimov X.To‘liboyev bilan hammualliflikda “Lingvokulturologiya” nomli monografiya e‘lon qildilar [1,140]. Tilshunoslar I.Kazakov, G. Qdirboyeva, G.Adilova, Sh.Qunnazarova, B.Bekniyazov, G.Usenova, R.Jumamuratova va boshqalar dissertatsiyalarini

mazkur mavzuga bag‘ishlaganlar. [2,158,150,24,24.22.20]

Adabiyotlar tahlili

Prof. A.E.Mamatov madaniyat haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Biz uchun madaniyat – bu inson hayotini tashkil etish, ijtimoiy hodisalarning umumiy sinfi; milliy shaxsga va eng avvalo uning ichki ma‘naviy dunyosiga e‘tibor; shaxsning moddiy va ma‘naviy ishlab chiqarish sohasidagi ijodiy faoliyati usullarining majmuasi; moddiy va madaniy boyliklarni taqsimlash va iste‘mol qilish usullari; insoniyatning progressiv rivojlanishiga ko‘maklashadigan ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni tashkil etish yutuqlaridir”. [3.26]

Tadqiqot metodologiyasi. O‘tmishda ajdodlarimiz diniy bilimga ega bo‘lgan insonlarni juda hurmat qilishgan. Islom dini talablarini, uning arkonlarini biladigan, mamlakatga islomni yoyish uchun kelgan ulamolarni **bobo, ota** so‘zlari bilan ataganlar, ularning aytgan yo‘l-yo‘riqlarini to‘liq bajarganlar. Ular vafot etganlaridan keyin dafn qilingan qabristonlarini ham ularning nomi bilan ataganlar.

Tahlil va natijalar. Qoraqalpog‘istondagi mavjud nekrotopo-nimlarning eng ko‘p qismi **ota** va **bobo** so‘zlarini antroponimlarga qo‘shish bilan hosil bo‘lgan. Misollar:

Norinjon bobo nekrotoponimi – **Qoraqalpog‘iston (Ellikqal‘a tumani)dagi me‘moriy yodgorlik (10-14-asrlar). Majmua qadimgi qal‘a o‘rnidagi qabriston markazi – Norinjon bobo maqbarasi atrofida turli davrlarda ziyoratxona, sharqiy maqbara (14-asr), xonaqoh ayvon, qalandarxona (18-asr) va boshqa qo‘shimcha xonalar qurib barpo etilgan. Norinjon bobo haqidagi aniq ma‘lumotlar saqlanmagan. Maqbaradagi qabrtoshga "Bu oqil, obid, Alloh yo‘lida doimiy ro‘zador, Alloh karomatini yerda paydo etuvchi, Muhammad ibn Muso ibn Dovud Abu Abdulloh an-Norinjoniy qabridur. Allohning unga va uning do‘stlariga rahmati bo‘lsin, hijriy 712 yil v.e." – deb yozilgan. Undagi girih naqshlar Termiziy maqbarasidagi qabrtoshga o‘xshashdir. 1981-83-yillarda ilmiy o‘rganilgan. Mustaqillikdan keyin qayta tiklandi.**

Hududda yoshi katta, xalq orasida katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan, savodli, yoshlarga o‘rnak bo‘ladigan, ularga aql o‘rgatib, nasihat qila oladigan insonlarni ham hurmatlab “ota” deb ataydilar. Mana shunday insonlar dafn qilingan ziyoratgohlarga ularning nomi beriladi. Shunday nekrotoponimlarga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Dovut ota nekrotoponimi Qo‘ng‘irot tumanining “Adabiyot” OFYda joylashgan. Bu qabriston vujudga kelishiga sababchi inson payg‘ambar emas, aslida bizday oddiy inson bo‘lgan. Dovut ota 1787-1874-yillar oralig‘ida yashagan. Aslida tug‘ilib o‘sgan joyi Qozog‘istonning Oqto‘be viloyatida bo‘lgan. Dovut ota Osov otaning o‘g‘li bo‘lgan, Osov ota esa Baraq otaning o‘g‘li bo‘lgan. Dovut ota aslida botir jangchi bo‘lgan. O‘z qishlog‘ining biyi bo‘lgan. Qozog‘istonga ruslar bosqini davrida 420 oilani olib, Amudaryo bo‘ylariga kelgan. Ushbu ma‘lumotlar

Qozog‘istonlik Mirzan Jetpisbayevning “Dav otovli Dovut” nomli asarida keltirilgan. Dovut ota olamdan o‘tgach shu qabristonga dafn qilinadi va qabristonga Dovut ota nomi berilgan. Bu ma‘lumotlarni Dovud ota qabristoni nazoratchisi Mirzatayev Mayram Ziynellayevich ham aytib o‘tdi.

Qadimgi oykonimlar nomi bilan atalgan nekrotoponimlar ham mavjud. Bunga misol sifatida Sho‘raxon nekrotoponimini keltirish mumkin. Mazkur nekrotoponim Sho‘raxon oykonimi hududida joylashganligi sababli oykonim nomi bilan atalgan, ya‘ni oykonim nekrotoponimga aylangan. Ikkalasi ham bir xil nomlansa ham mahalliy aholi ularni yaxshi farqlay oladi. Bunda ularning semantik qurshovi katta vazifa bajaradi.

Sho‘raxon nekrotoponimi To‘rtko‘l tumanining “Sho‘raxon” OFYda joylashgan. (“Sho‘raxon” so‘zi o‘zbek tilida “shor” va “raxon” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “shor” – tuzli, “raxon” esa “boshqaruvchi” yoki “rahbar” ma‘nosini anglatadi. Umuman olganda, “sho‘raxon” so‘zi “tuzli boshqaruvchi” yoki “tuzli rahbar” degan ma‘noni anglatishi mumkin.) IX-XIII asrlarda hayot qaynagan Sho‘raxon qal‘asi bo‘lgan. O‘sha davrlardan buyon bu yerda insonlar yashab kelishmoqda. Shu sababi bu joy nomi Sho‘raxon aholi punkiti deya nomlanadi. Bu qabristonga Sho‘raxonlik insonlar dafn qilinadi shuning uchun Sho‘raxon qabristoni deya nom berilgan. Sho‘raxon nomi shu yerlik xalqning milliylikiga ham aylanib ketgan.

Qoraqalpog‘iston hududidagi nekrotoponimlar orasida etnonimlardan hosil bo‘lgan nekrotoponimlar ham mavjud. Ular hududda istiqomat qiladigan millatlar nomi bilan ataladi. Shuningdek, millatlar tarkibidagi urug‘lar nomi bilan ataladigan nekrotoponimlar ham uchraydi. Shu bois etnonekrotoponimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Etnonim nomi bilan ataladigan nekrotoponimlar.
2. Etnonim tarkibidagi urug‘lar nomi bilan ataladigan nekrotoponimlar.

Ma‘lumki, Qoraqalpog‘iston hududida yuzga yaqin millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Shulardan biri koreys millati vakillari bo‘lib, ular hozirgi kunda olti mingdan ortiq aholini tashkil qiladi. Tilshunos G.Kurboniyazov shunday yozadi: “Koreyslar bu hududga ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda kelib o‘rnashganlar. Ular tili, urf-

odati, milliy madaniyati, mentalitetini saqlab qolganlar.

Koreyslar nekrotoponimi Beruniy tumanining “Do‘stlik” OFYda joylashgan. Koreyslar qabristoni 1900-yillarda vujudga kelgan. Koreyslar qabristoni nega bunday nomlangan? Koreyslar qabristoniga yurtimizga har xil sabablar bilan kelgan koreys millatiga mansub insonlar olamdan o‘tgandan keyin shu yerga dafn qilingan. Shu sababdan ham bu qabriston Koreyslar qabristoni deya ataladi. Koreyslarning o‘z milliy urf-odatlariga sodiq holda bo‘lishi uchun albatta o‘z millati uchun yaqinlarini dafn qilish uchun qabriston ochishgan.

Respublika hududida o‘n mingdan ortiq ruslar ham hayot kechirishadi. Ularning jips yashaydigan joylarida ham ularning o‘z ona tillarida boshlang‘ich ta‘limdan boshlab oliy ta‘limgacha bilim olishlari uchun sharoitlar yaratib berilgan. Ular xristianlar bo‘lganligi bois ular alohida dafn qilinadi.

Ruslar nekrotoponimi Beruniy tumanining “Do‘stlik” OFYda joylashgan. Ruslar qabristoni 19-asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Bu qabriston nega bunday nomlanganligi o‘z nomi bilan yaqqol ko‘rinib turibdi. Ruslar qabristoniga rus millatiga mansub insonlar dafn qilinganligi uchun shunday nomlangan. Rus millati bu yerlarga albatta ruslar bosqini davrida va undan keyin ko‘chib yoki biron sabab bilan kelishgan va shu yerlarda yashab qolishgan.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, respublikada millatlar tarkibidagi urug‘lar nomi bilan ataluvchi nekrotoponimlar ham mavjud. Bizga ma‘lumki, pravolaslar xristianlikning bir bo‘limi hisoblanadi.

Pravoslav nekrotoponimi Taxiyyatosh tumanining “Nayman” OFYda joylashgan. Bu qabristonning nomidan ham bilish mumkinki bu qabriston bunday nomlanishining sababi bu qabristonga xristian dinining pravoslav bo‘limi vakillari dafn qilinadi. Shu sababli bu qabriston Pravoslav qabristoni deb nomlangan.

Qoraqalpoq xalqi ikkita katta guruhga ajraladi: **Qong‘irot arisi, O‘n to‘rt urug‘ arisi.** Qong‘irot arisi ikki guruhga bo‘linadi: Shullik bo‘limi, Javung‘ir bo‘limi. Shullik bo‘limiga jami 109 ta urug‘ kiradi. Javung‘ir bo‘limiga 33 ta urug‘ kiradi. O‘n to‘rt urug‘ arisi to‘rtta katta guruhga bo‘lingan: Xitoy, Qipchoq, Keneges, Mang‘it. Xitoy bo‘limiga 61 ta, Qipchoq bo‘limiga 43 ta, Keneges bo‘limiga 30 ta, Mang‘it bo‘limiga 22 ta urug‘ kiradi [4.191].

Qoraqalpoq xalqi urug‘larining hududda joylashishi ham bir xil emas. Ba‘zi tumanlarda ma‘lum bir urug‘ vakillari ko‘p yashasa, ayrim urug‘lar kam uchraydi. Shuning uchun tumanlarda ko‘p yashaydigan urug‘lari dafn qilingan nekrotoponimlar uchraydi. Masalan:

Qo‘ldavli nekrotoponimi Qorao‘zak tumanining “Berdaq” OFYda joylashgan. Qo‘ldavli qabristoniga qoraqalpoq millatining qo‘ldavli urug‘i vakillari dafn qilinadi. Shu sababdan ham bu qabriston nomi Qo‘ldavli qabristoni deya ataladi. Qoraqalpoq xalqi turli xil urug‘larga bo‘linadi va tabiiyki bu urug‘lar qabristonlarini ham alohida qilishgan. Bu hol qoraqalpoq xalqining milliyligi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qoraqalpoq xalqida mang‘it urug‘i ikkiga bo‘linadi. Oqmang‘it va qoramang‘it. Oqmang‘it (qoraqalpoqchada Aqmang‘it) Nukus tumanining poytaxti shunday nomlanadi. Demak, mazkur hududda oqmang‘it urug‘iga mansub aholi ko‘p yashaydi degan xulosaga kelish mumkin. Qoramang‘it nekrotoponimi Kegayli tumanida joylashgan. Bundan Kegaylida qoramang‘it urug‘i vakillari ko‘p ekanligini payqash mumkin:

Qaramang‘it nekrotoponimi Kegeyli tumanining “Jangabazar” APJ da joylashgan. Qaramang‘it qoraqalpoq millati urug‘ining nomi bu qabristonga shu urug‘ga mansub insonlar dafn qilinadi. Shu sababli ham bu qabriston Qaramang‘it nekrotoponimi deb nomlanadi.

Respublikaning shimoliy tumani bo‘lgan Taxtako‘pir tumanida esa Irg‘aqli urug‘iga mansub qoraqalpoqlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Irg‘aqli nekrotoponimi Taxtako‘pir tumanining “Qaraoy” APJda joylashgan. Mazkur qabristonga qoraqalpoqlarning Irg‘aqli urug‘idan bo‘lgan insonlar dafn qilingan va qilinib kelmoqda, shuning uchun ham bu nekrotoponim Irg‘aqli deb ataladi.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, tumanlarda qaysi urug‘ vakillari ko‘p yashashini, qaysi urug‘lar qadimdan qaysi hududlarga keng tarqalganligini nekrotoponimlardan ham bilish mumkin. Har bir millatda bo‘lgani kabi qoraqalpoqlar ham o‘zlarining botirlarini, xalq ozodligi, ravnaqi uchun xizmat qilgan asl o‘g‘lonlarini qadrlashadi, ularni asrlar oshsa ham unutmaydi. Qoraqalpoq xalqining erkinligi uchun kurashga rahbarlik qilgan Ernazar Olako‘z ham shular jumlasidandir.

Ernazar Olako‘z nekrotoponimi Mo‘ynoq tumanining “Qazaq daryo” OFY da joylashgan. Nafaqat Mo‘ynoq xalqi, balki butun qoraqalpoq xalqi Ernazar Olako‘zni hurmat qilishadi, eslashadi, ziyorat qilishadi.

Ernazar Olako‘z (taxminan 1806-1856) – Xiva xonligida qarshi ko‘tarilgan qoraqalpoqlar g‘alayoni (1855—56) rahbari. U qoraqalpoqlarni Xiva xonligidan ajratib olish niyatida 1855-yil o‘rtalarida Xiva xoniga qarshi g‘alayon ko‘targan. Amudaryoning o‘ng sohilida Qoraqalpoq xonligini tuzib, Zorliq to‘rani xon, o‘zini esa unga bosh vazir deb e‘lon qilgan. 1856-yil fevralda Xiva xoni Sayd Muhammadxon Xo‘jayli yonida Ernazarga qattiq zarba bergan, Zorliqto‘ra va Ernazar qatl etilgan. Ernazar Olako‘zning jasadi dafn qilingan qabriston Ernazar Olako‘z deya ataladi.

Qoraqalpoq xalqi azaldan she‘riyatga, musiqaga ishtiyoqi baland, yuksak didli xalq bo‘lgan. O‘z ichidan shoirlarning she‘rlarini tinglab, jirovlarning dostonlarini tinglab, yoshlarida ham san‘atga muhabbat shakllanib borgan. Ular shoirlarni juda hurmat qilishgan. Chunki shoirlar xalqning dardini armonlarini kuylagan. Ba‘zi nekrotoponimlar ham shoirlar nomi bilan ataladi. Masalan:

Ajiniyoz shoir nekrotoponimi Mo‘ynoq tumanining “Hakim ata” OFYda joylashgan. Qoraqalpoq xalqining shoiri Ajiniyoz Qusiboy o‘g‘li 1824-yilda Mo‘ynoq tumanida tug‘ilgan. Qoraqalpoq adabiyotining yirik siymalaridan bo‘lgan Ajiniyozni Qoraqalpoq xalqi juda yaxshi ko‘radi va sevib u yozgan she‘rlarni yod oladilar. 1878-yilda Ajiniyoz olamdan o‘tgandan keyin “Hakim ata” OFYda joylashgan qabristonga dafn qilinadi shu voqeadan keyin bu qabriston Ajiniyoz Shoyir nomi bilan ataladi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan ma‘lum bo‘ladiki, nekrotoponimlar ham toponimlarning boshqa turlari kabi xalqning hayoti, tarixi, undagi urushlar, o‘lkaning tabiati, xalqning kasb-kori, milliy qadriyatlarini haqidagi ma‘lumotlarni kumulyatsiya qiladi. Nekrotoponimlarni sinchiklab o‘rganish xalq tarixi haqida qimmatli ma‘lumotlarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdinazimov Sh., Tolibayev X. Lingvokulturologiya. –Nokis: Qaraqalpaqstan, 2020. –140 b.

2. Кдырбаева Г.К. “МАН” – “АДАМ” концептосферасы бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. –Тошкент, 2017. –158 б; Адилова Г.А. Қарақалпақстан қазақлари этнографизмлериниң лингвомаданий анализи: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Нукус, 2018. –150 б; Кунназарова Ш.М. Қорақалпоқ халқ эртақларининг лексик-семантик ва лингвомаданий таҳлили: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. –Нукус, 2021. –24 б; Бекниязов Б.К. Қорақалпоғистон қозоқлари тилидаги соматик фразеологизмларнинг лингвомаданий таҳлили: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. – Нукус, 2021. –24 б; Усенова Г.А. “MOTHER/АНА” концепт идентификаторларининг лингвомаданий хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. –Нукус, 2021. –22 б; Жумамуратова Р.А. Қорақалпоқ ва инглиз тилларидаги лексик-фразеологик лақуналар тадқиқи (чоғиштирма аспект): Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф.. –Нукус, 2021. –20 б.

3. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. –S. 26.

4. M. Nizanov. Qoraqalpoqlar, -- Nukus: Bilim, 2020. –S. 191.

5. Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – B. 98.

6. Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. – М., 1969. – С. 92-93.

7. Yusupov S.S. “Ota” indikatorli nekrotoponimlarning grammatik xususiyatlari / “Turkiy xalqlar filologiyasining dolzarb masalalari: nazariya va innovatsion ta‘lim texnologiyalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Nukus, 2023. – S. 87-91.